


## 2018 yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 9906,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,8 % ni tashkil etdi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibida savdo xizmatlari (30,5 %), transport xizmatlari (27,5 %), moliyaviy xizmatlar (10,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining ulushi (6,2 %) ustunlikka ega.

### 2018 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



2018 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 1562,0 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2018 yil yanvar-noyabr oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 914,8 mlrd. so'mga ko'paydi.

**2018 yilda ayrim xizmat turlari hajmining  
taqqoslanishi, mlrd. so'm**



Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga transport xizmatlari (247,8 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (266,1 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (108,5 mlrd. so'mga) hamda aloqa va axborotlashtirish (53,1 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.


**Ma'lumot uchun:** 2017 yilning mos davrida savdo xizmatlari – 529,5 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar – 345,2 mlrd. so'm, transport xizmatlari – 234,3 mlrd. so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 73,7 mlrd. so'mga o'sgan.

**2018 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>9 906,3</b>	<b>107,8</b>
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	610,2	113,5
moliyaviy xizmatlar	996,1	138,2
transport xizmatlari	2 729,0	105,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2 510,1	102,1
yashash va ovqatlanish xizmatlari	267,4	101,9
savdo xizmatlari	3 024,6	103,2
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	279,8	103,1
ta'lim sohasidagi xizmatlar	433,4	107,9
sog'linqi saqlash sohasidagi xizmatlar	135,8	110,9
ijara xizmatlari	355,6	105,5
kompyuterlar va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	293,9	102,9
shaxsiy xizmatlar	419,3	102,1
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	87,0	140,7
boshqa xizmatlar	274,2	103,3

Eng yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (140,7 %), moliyaviy xizmatlar (138,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (113,5 %), sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar (110,9 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (107,9 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

**2018 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari yashash va ovqatlanish xizmatlari (101,9 %), shaxsiy xizmatlar (102,1 %), kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari (102,9 %) va ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (103,1 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 267,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish 101,9 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 2,7 % ga yetdi.


## 2018 yil yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 79,4 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlarning ulushi 20,6 % ga to'g'ri keldi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 76,1 % ni tashkil etdi.

## 2018 yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



- Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar
- Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarning (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) umumiyl savdo xizmatlari hajmidagi ulushi 14,1 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiyl savdo xizmatlari hajmida 9,8 % ni egallaydi.


**2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha  
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>9906,3</b>	<b>107,8</b>
shaharlar:		
Samarqand	6204,6	108,3
Kattaqo'rg'on	223,0	106,6
tumanlar:		
Oqdaryo	236,0	107,0
Bulung'ur	238,4	106,9
Jomboy	251,1	106,8
Ishtixon	251,0	107,0
Kattaqo'rg'on	232,9	106,9
Qo'shrabot	189,0	106,4
Narpay	220,2	106,7
Payariq	237,8	106,9
Pastdarg'om	299,3	106,7
Paxtachi	189,6	106,6
Samarqand	361,4	106,9
Nurobod	220,6	106,2
Urgut	291,9	108,1
Tayloq	259,5	107,3

Hududlar o'rtasida eng yuqori ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi Samarqand shahriga (6204,6 mlrd. so'm) to'g'ri kelmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Samarqand shahri bo'yicha 108,3 % ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich Urgutda 108,1 % ni, Tayloqda 107,3 % ni, Oqdaryoda 107,0 % ni va Ishtixon tumanida ham 107,0 % ni tashkil qildi.


Eng kichik hajm Qo'shrabot (189,0 mlrd. so'm), Paxtachi (189,6 mlrd. so'm) va Narpay (220,2 mlrd. so'm) tumanlarida kuzatildi.

### 2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Nurobod (106,2 %), Qo'shrabot (106,4 %), Paxtachi (106,6 %) tumanlari va Kattaqo'rg'on shahri (106,6 %) da kuzatildi.

### **2018 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumi hajmida hududlarning ulushi, %**



Hududlar o'tasida xizmatlar umumi hajmida eng katta ulushni Samarqand shahri (62,6 %), Samarqand tumani (3,7 %), Pastdarg'om (3,0 %), Urgut (3,0 %) va Tayloq (2,6 %) tumanlari egallaydi.


Hududlar o'tasida eng kam ulush Paxtachi tumani (1,9 %), Qo'shrabot (1,9 %), Nurobod (2,2 %) va Narpay (2,2 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda. Viloyatda 2018 yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 236,6 ming so'mga oshib, 2635,1 ming so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 371,2 ming so'mga oshdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning maksimal o'sishi Samarqand shahrida (6,8 %), Urgur tumanida (5,4 %), va Kattaqo'rg'on shahrida (5,2 %) qayd etildi.

Jomboy tumanida uncha yuqori bo'limgan o'sish sur'ati 104,0 % tashkil qildi.

### 2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

0371-230-85-35